



TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI

*Chirchiq davlat pedagogika universitei*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Urinova Durdona Olimjon qizi**

[Urinovadurdona75@gmail.com](mailto:Urinovadurdona75@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti*

*kafedra o'qituvchisi* **Xudayqulova F.B**

[fazilatxudayqulova@gmail.com](mailto:fazilatxudayqulova@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada xalq ta'limi tizmining ta'lim sifati ko'rsatgichlari pedagogik faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar bilim salohiyati, bo'lajak xalqaro o'qituvchilarning kreativligi, ilg'or g'oyalar va tadqiqotlari, shuningdek, hozirgi kun maktab ta'lim tizimini baholash asosida "TALIS" xalqaro baholash tizimiga murojaat etishning samaralari tomonlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** "TALIS" xalqaro baholash dasturi, pedagog, maktab, OECD, islohotlar, ta'lim sifati, ta'lim tizimi.

**Kirish:** Hozirgi globallashtirish davrida butun dunyo bo'yicha yangicha ta'lim tizimi vujudga kelmoqda, bu yangicha ta'limlarning birlashtiruvchi asosiy maqsadi ta'lim ko'rsatgichlarini yaxshilash va ularning baholash tizimlarini raqamlashtirishdir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini yanada isloh qilish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. Xususan: ta'lim sifati ko'rsatgichlarini yuksaltirish maqsadida xalqaro o'quvchilar bilimini baholash dasturlari ( PISA, PIRLS, TIMSS , EGRA, EGMA) olib kirilishi, an'anaviy baholash tizimidan Formativ va Summativ baholash tizimiga o'tilishi, ilg'or, kreativ fikrlovchi, ijodkor kadrlarni yitishirishga, ularni har tomonlama qullab-quvvatlashga, shuningdek maktab ta'lim tizimini tubdan



yaxshilash, pedagoglar ish faoliyatini samarali olib borish uchun shart sharoitlar yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

**Asosiy qism:** Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi, malakali kadrlar va yetuk pedagog mutaxassislar yetishib chiqayotganini e'tirof etish mumkin. Maktablar va Oliy ta'limda dargohlarida amalga oshirilayotgan islohotlar ham buning yorqin aksidir. Bunda pedagog mutaxassislar bilim salohiyatini, o'z kasbidan qoniqish darajasini, ta'lim berishga bo'lgan ishonch va qiziqishlari, maktab va uning ta'lim muhitini baholovchi dastur haqida e'tirof etilishi joiz.

TALIS" (Teaching and Learning International Survey)— o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot bo'lib, har 6 yilda o'tkaziladi. So'nggi marotaba 2018-yilda o'tkazilgan. TALIS xalqaro baholash dasturlarda 48 ta davlat qatnashgan bo'lib, natijalari 2020-yilda iyun oyida e'lon qilingan.

O'zbekistonning 2024-yilda o'qitish sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar (TALIS) tadqiqotida qatnashish masalalariga bag'ishlangan onlayn uchrashuv bo'lib o'tgani barchaga ma'lum. Shu o'rinda "Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev, inspeksiyaning tegishli boshqarma va bo'lim rahbarlari, shuningdek markaz huzuridagi Milliy markaz jamoasi, hamda OECD tashkilotining TALIS boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Karin Trembley, TALIS analitigi, xalqaro hamkorliklar boshqaruvchisi Sofi Vayssett va Pablo Freyzerlar ishtirok etishi nazarda tutilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad O'zbekiston ham 2024- yil "TALIS" xalqaro baholash dasturiga qatnashishi, ta'lim muassasalaridagi ahvolni, o'qituvchilarning faoliyatidagi muammolarni tizimli tahlil qilib, natijalarni individual tarzda emas, balki reprezentativlik tamoyili asosida davlatlar va xalqaro miqyosda solishtirma tahlillar shaklida olib borilishi ko'zlanmoqda.

Darhaqiqat TALIS tadqiqotlarini o'tkazish bo'yicha bir necha yillar davomida hamkorlikka ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda umumta'lim maktablari milliy reytingini aniqlashda ham mazkur tizimga moslashtirilgan so'rovnomalardan muntazam tarzda foydalanib



kelinmoqda. Bu orqali qator yutuq va kamchiliklarimizni mamlakat miqyosida aniqlab kelinmoqda .

"TALIS" xalqaro baholash dasturi o'qituvchilar va maktab direktorlari o'rtasida olinadigan so'rovnomalar orqali ta'lim muassasasidagi boshqaruv muhiti baholanadi. Unda tasodifiylik asosida tanlab olinadigan o'rtacha 200 ta ta'lim muassasasi, 4000 nafar o'qituvchi va 200 nafar maktab direktori qatnashishi ko'zda tutilgan. Xalqaro tadqiqotlar natijalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash va olinadigan tahlillarning qamrovini kengaytirish maqsadida PISA tadqiqoti o'tkaziladigan maktablar bilan bog'liq holda amalga oshirish imkoniyatlari ko'zda tutilgan.

**Xulosa:** "TALIS" xalqaro baholash dasturi— ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma'lumotlar taqdim etadi. Bu baholash dasturida maktab o'qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o'z fikrini bildirish imkonini beradi. Bu tadqiqot ta'lim oldida turgan muammolarni hal etishga yordam beradi. Shuningdek bu dastur o'qituvchilar fikr mulohazalarini eshituvchi, qarashlarini o'rganuvchi yagona xalqaro dasturdir. Bu dasturni faqat xalqa ta'limi tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglardan tashqari, maktabgacha ta'limda tashkilotlari ham o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining fikr mulohazalari orqali, ta'limdagi muammolarni yechish, hamda , to'g'ri investitsiyalar kiritishga asos bo'ladi. Shuningdek boshqa davlatlar bilan ta'lim jarayonidagi sog'lom almashinuvlar, metodik va amaliy tajribalar olib boorish imkoniyati yaratiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)
2. <https://xs.uz>
3. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8- dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 maydagi «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3755-sonli Qarori.
5. Gulmirzayeva, G., & Xudayqulova, F. B. (2024). XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ORQALI BOSHLANG 'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH. PEDAGOG, 7(3), 454-458.
6. Xudayqulova, F., Xikmatova, M., & Panjiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO DASTURLAR ASOSIDA DARS O'TISHNING AFZALLIKLARI. *Interpretation and researches*, 1(1).